

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLARNI O'RGATISH: BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAMARALI METODLAR

Boltayeva Marjona Baxriddin qizi

Qarshi xalqaro universiteti Muhandislik va pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Murojaat uchun: Tel.+998503034351

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18053063>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga konstitutsiyaviy huquqlarni o'rgatishning samarali metodlari yoritilgan. Unda o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos yondashuvlar, huquqiy ongni shakllantirishning pedagogik asoslari hamda interfaol o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi. Maqola ta'lim jarayonida konstitutsiyaviy bilimlarni singdirishning amaliy yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, huquqiy ong, boshlang'ich sinf, huquqiy tarbiya, interfaol metodlar, rolli o'yinlar, Wordwall, Educaplay, huquqiy madaniyat, o'quvchilarda huquqiy tushunchalar.

Bugungi kunda jamiyatning rivojlanishi, davlat boshqaruvi hamda fuqarolarning farovon hayot kechirishi, avvalo, mamlakatimiz aholisining huquqiy ong darajasi hamda Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarini to'g'ri anglashi bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga

bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi –farovon hayot garovi degan tushuncha fuqarolarimizning ongi va qalbida chuqur o'rin egallashi hamda ijtimoiy ehtiyojga aylanishi lozim"¹ deya ta'kidlab o'tgandilar. Bilamizki, huquqiy madaniyatni shakllantirish ta'lim tizimidan, xususan, boshlang'ich sinflardan boshlab yo'lga qo'yilishi kerak bo'lgan jarayondir. Chunki aynan boshlang'ich ta'lim davri bolalarning dunyoqarashi shakllanib boradigan, asosiy tushunchalar, ko'nikmalar singdiriladigan — shaxs bo'lib yetishib boradigan eng muhim bosqichlardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar yangi ma'lumotni tez qabul qilish qobiliyatiga ega. Hall va boshqalar 2015 yilda

o'tkazgan tadqiqotda 5–8 yoshdagi bolalarda ishlash xotirasi va asosiy xotira hajmi o'rganilgan. Natijalar bolalar yangi ma'lumotni tez o'zlashtirishi mumkinligini, ammo uning uzoq muddatli xotirada saqlanishi ishlash xotirasi hajmi bilan cheklanishi mumkinligini ko'rsatdi². Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarini

o'qitishda interfaol va amaliy metodlardan foydalanish, ma'lumotni qayta ko'rib chiqish va mashq qilish jarayoni ularning o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, Konstitutsiyada belgilangan huquqlarni erta yoshdan interfaol metodlar yordamida o'rgatish o'quvchilarda adolat, tenglik, mas'uliyat, qolaversa, qonunlarga hurmat kabi tushunchalarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

¹ Prezident Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2019 yil 7 dekabr.

² Hall, D. et al. The Developmental Influence of Primary Memory Capacity on Working Memory and Academic Achievement. PMC, 2015. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC4536926/>

Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga konstitutsiyaviy huquqlarni o'rgatishning samarali metodlari ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida o'rganiladi. Unda o'quvchilarning yosh psixologiyasi, huquqiy bilimlarning mazmun-mohiyati, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik metodlarning imkoniyatlari tahlil qilinib, amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda huquqiy tarbiyani yanada takomillashtirishga, yosh avlodga Konstitutsiyaga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xususan, “Moddalarini sharhi bilan moslashtir” metodi boshlang'ich sinf

o'quvchilari uchun nafaqat Konstitutsiya moddalarini o'rganish, balki matnni o'qib, uning mazmunini tushunish va o'qish savodxonligini rivojlantirish imkonini beradi. Metod jarayonida bola dastlab moddaning matnini o'qiydi, keyin uning mazmunini anglab, unga mos tushadigan sharh bilan bog'laydi. Ushbu metod yakka tartibda ishlashda jadval ko'rinishida, guruhli ishlar uchun esa kartochkalar yordamida qo'llash mumkin, bu esa o'quvchilarning tahliliy fikrlash va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Misol tariqasida:

Modda	Sharhi
1-modda O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Davlatning “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi. ³	Davlatimizning bayrog'i, gerbi va madhiyasi — O'zbekistonni tanituvchi belgilar. Ularni hurmat qilish har bir fuqaro uchun muhimdir.
5-modda O'zbekiston Respublikasi qonun bilan tasdiqlanadigan o'z davlat ramzlari — bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega. Davlat ramzlari davlat himoyasidadir. ⁴	Har bir kishi mol-mulkka ega bo'lishi mumkin. Bankdagi pul va hisoblar maxfiy saqlanadi. Ota-onadan meros qolgan narsalar ham qonun bilan himoyalanaadi.
41-modda Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi. ⁵	O'zbekiston mustaqil va qonunlari bilan boshqariladigan davlatdir. Uning boshqaruv shakli — respublika, ya'ni xalq saylagan rahbarlar boshqaradi. “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” nomlari bir xil davlatni bildiradi.

Bu yerda moddalar va ularning sharhi mos emas. O'quvchining o'zi moddani o'qishi va uning sharhini topishi lozim.

3-4-sinf o'quvchilari uchun esa rolli o'yinlar mos keladi. Bunda

o'quvchilarga konstitutsiya moddalarining buzilishi bilan bog'liq vaziyatlar beriladi, ular esa vaziyatga mos sahna ko'rinishi tayyorlashlari lozim. Misol uchun:

“Kutubxonada kitobni o'g'irlash yoki buzish”

Vaziyat: Bir o'quvchi kitobni ruxsatsiz olib ketadi yoki zarar yetkazadi.

³ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023, 1-modda

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023. 5-modda

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023.41-modda

Rollar: bir guruh — qonunni hurmat qiluvchi o'quvchilar, boshqa guruh — vaziyatni hal qiluvchi kutubxonachi yoki o'qituvchi.

Natija: O'quvchilar shaxsiy mulk va mulk huquqi, shuningdek qonun va qoidalarini hurmat qilishni amalda tushunadi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga Konstitutsiya moddalarini

o'rgatishda nafaqat an'anaviy metodlar, balki zamonaviy interfaol vositalardan ham foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, Wordwall yoki Educaplay kabi saytlar yordamida o'quvchilar uchun turli interfaol mashqlar va viktorinalar tayyorlash mumkin. Har bir modda bo'yicha o'quvchilar:

- Matnni o'qiydi, mazmunini anglaydi;
- Moddani sharh bilan moslashtiradi;
- Interfaol mashqlar orqali o'zlashtirgan bilimlarini amalda sinab ko'radi.

Shunday qilib, masalan:

1-modda: O'zbekiston mustaqil va respublika shaklida boshqariladigan davlat ekanligini interfaol viktorina yoki "drag-and-drop" mashq yordamida

o'rganish mumkin;

5-modda: Davlat ramzlarini aniqlash va ularni hurmat qilish qoidalarini interfaol testlar orqali takrorlash mumkin;

41-modda: Shaxsiy mulk va mulk huquqi bilan bog'liq vaziyatlarni "quiz" yoki rolli o'yin tarzida modellashtirish mumkin.

Shu tarzda, Wordwall, Educaplay va boshqa interfaol platformalar moddalarni o'quvchilarga tushunarli, qiziqarli va amaliy tarzda o'rgatishga yordam beradi, ular bilimlarini mustahkamlash va tahlil qilish imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa

Shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilari huquqiy tushunchalarni o'rganish uchun eng mos yoshdagi guruh hisoblanadi. Ular yangi ma'lumotni tez qabul qilishi, matnni o'qib mazmunini anglashi va o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, Konstitutsiya moddalarini o'rgatishda interfaol metodlar, jumladan "Moddalarni sharhi bilan moslashtir", rolli o'yinlar, shuningdek Wordwall va Educaplay kabi zamonaviy onlayn platformalardan foydalanish samarali natija beradi.

Ushbu metodlar o'quvchilarda:

- Konstitutsiya va qonunlarga hurmat;
- Adolat va tenglik tushunchalari;
- Shaxsiy mulk va huquqiy majburiyatlar haqida amaliy tushuncha;
- Fikr almashish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijada, boshlang'ich sinfda huquqiy tarbiya jarayoni nafaqat bilim berish, balki yosh avlodda fuqarolik mas'uliyati va huquqiy ongni rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir, 2023.
2. Prezident Sh. Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul

qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. 2019 yil 7 dekabr.

3. Hall, D. et al. The Developmental Influence of Primary Memory Capacity on Working Memory and Academic Achievement. PMC, 2015.

<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC4536926/>

4. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/2048/1871>